



**O'ZKIMYOSANOAT**  
AKSIYADORLIK JAMIYATI

*2022-yil 16-avgust*

# **O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi kimyo sanoat mahsulotlarining 16-avgust sanasidagi savdo yakunlari**



“O‘zkiymosanoat” aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi o‘z savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan kimyo mahsulotlari savdosining 2022-yil 16-avgust sanasidagi yakuni bo‘yicha ma‘lumotlarni taqdim etadi.

Joriy yilning 16-avgust kuni “O‘zkiymosanoat” AJ tizimidagi korxonalar tomonidan O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi ochiq birja savdolari orqali 8338 tonna 26706,5 mln. so‘mlik mineral o‘g‘itlar sotildi. Bir kun oldin bu ko‘rsatkich past bo‘lgan, ya‘ni 15-avgust kuni 25292,5 mln. so‘mlik 7796 tonna mineral o‘g‘itlar sotilgan.

Birja savdolariga tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ammiakli selitra, karbamid, sulfat ammoniy, ammosfos, PS-Agro, kaliyli o‘g‘itlar, superfosfat azot-fosforli o‘g‘it kabi mahsulotlar qo‘yildi. Savdogaga qo‘yilgan mineral o‘g‘itlardan ammiakli selitra eng ko‘p sotilgan mahsulot bo‘lib, sotuvning 36,9 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, “O‘zkiymosanoat” AJ tizimidagi korxonalar tomonidan mineral o‘g‘itlardan tashqari bugungi kun sanoatida keng qo‘llanilayotgan PVX, kaustik soda, formalin, natriy gipoxlorid,

kalsinasiyalangan soda, azot kislotasi va suyuq kislorod kabi bir qator kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ular ham doimiy ravishda birja savdolariga qo'yib boriladi. 16-avgust kuni jami 14138,3 mln. so'mlik boshqa turdagi kimyo mahsulotlar sotildi. Bir kun oldin bu ko'rsatkich past bo'lgan, ya'ni 15-avgust kuni 8814,4 mln. so'mlik boshqa turdagi kimyo mahsulotlari sotilgan. Sotuvning asosiy qismini, ya'ni 45,9 foizini ammoniy nitrat eritmasi mahsuloti tashkil etdi.

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi "O'zkiyosanoat" AJ savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar savdosi bo'yicha barcha ma'lumotlarni [www.uzkiyosanoat.uz](http://www.uzkiyosanoat.uz) rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi <https://t.me/uzkiyosanoat> va <https://www.facebook.com/uzkiyosanoat/> rasmiy sahifalari orqali olishingiz mumkin.

Mahsulotlarni yetkazib berish va ularning sifat darajasi bo'yicha taklif va e'tirozlaringiz bo'lsa, (78) 140-74-48 ishonch telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

**"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati**

**source:**

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/birja20220816>